

## MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408118>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanadi va albatta kerakli shart-sharoitlar bilan ta'minlanishni taqozo etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida, ayniqsa, uning hozirgi bosqichida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, unga keng erkinlik berishga e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, kichik biznes, kichik va o'rta tadbirkorlik, soliq stavkalari, raqamli iqtisodiyot, litsenziya, ko'chmas mulk, kompaniya, tijorat bank.

### THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY

**Abstract.** In this article, in the economy based on market relations, entrepreneurial ability is an economic resource and necessarily requires the provision of necessary conditions. During the reforms implemented in our republic, especially at its current stage, attention is being paid to the development of entrepreneurship and giving it wide freedom.

**Keywords:** Entrepreneurship, small business, small and medium-sized business, tax rates, digital economy, license, real estate, company, commercial bank.

### РОЛЬ ОТНОШЕНИЙ СОБСТВЕННОСТИ В ОБЩЕСТВЕ.

**Аннотация.** В данной статье в экономике, основанной на рыночных отношениях, предпринимательская способность рассматривается как экономический ресурс и обязательно требует обеспечения необходимых условий. В ходе реформ, реализуемых в нашей республике, особенно на современном этапе, уделяется внимание развитию предпринимательства, предоставлению ему широкой свободы.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, малый бизнес, малый и средний бизнес, налоговые ставки, цифровая экономика, лицензия, недвижимость, компания, коммерческий банк.

Kishilarning moddiy ne'matlarni yaratishdagi, ularni taqsimlash va iste'mol etishdagi o'rni, siyosiy hayotda tutgan mavqei, asosan, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishlariga bog'liq. Jamiyat taraqqiyoti tarixida egalik qilish shakliga ko'ra mulkning bir necha turi bor: ibtidoiy jamoa tuzumida ishlab chiqaruvchi kuchlar g'oyat past rivojlanganidan kishilar birgalikda, guruh-guruh bo'lib mehnat qilishgan. Shubhasiz, shunday sharoitda mehnat qurollari va mahsulotlari jamoaning umumiy mulki bo'lgan. Mehnat qurollari va mehnat malakasi yuksalgach, kishilar yakka holda mehnat qila oladigan bo'ldi. Bu o'zgarish tufayli jamoa mulki parchalanib, xususiy mulkka aylangan.

Mulk – moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishidir. Mulkka egalik huquqi hamda mulk ob'ektlariga egalik, ularni bo'lish, taqsimlash bo'yicha kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulk ob'ekti yer va yer osti boyliklari, korxonalar, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda

o'zlashtiruvchilar mulk sub'ektlari, ya'ni egalari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va davlat kiradi. Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko'rish mulkni iqtisodiy tasarruf qilish hisoblanadi.

Xususiy mulk – bu mulkni o'zlashtirishning xususiy usuliga asoslangan shakli. U ikki xil bo'ladi:

1. Individual – yakka xususiy mulk, ya'ni ayrim shaxslar yoki oilalarga tegishli mulk;

2. Korporativ xususiy mulk, bu ham ayrim kishilarga qarashli, lekin aksiyadorlar jamiyatidagi umumiy mulkning bir qismi sifatida mavjud bo'lgan mulk. Korporativ mulk dividend keltiruvchi mulkdir.

Jamoa mulki – bu jamoaga ixtiyoriy ravishda birlashgan kishilarning umumiy mulki bo'lib, bu mulkning egalari shu jamoada mehnat qilishi shart. Bu yerda mulk egasi ayni bir vaqtda shu mulkni amalda ishlatuvchi ham hisoblanadi.

Davlat mulki – davlat ixtiyorida bo'lgan mulk, davlat hokimiyati organlari tomonidan tasarruf etiladigan monopollashgan mulkdir. Bunday mulk ob'ekti – yer, tabiat resurslari, asosiy vositalar, binolar, moliya, moddiy resurslar, axborot, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lishi mumkin. Bu mulk ijtimoiy ne'matlarni yaratishga xizmat qiladi.

Davlat bor yerda uning mulki mavjud, lekin ushbu mulkning milliy iqtisodiyotdagi ulushi turli mamlakatlarda farqlanadi va mamlakat iqtisodiyotining modeliga bog'liq. Fuqarolik jamiyati doirasida davlat mulki tobora ijtimoiy yo'nalish olmoqda, ya'ni umummilliy manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan.

Mulkga egalik va uni tasarruf etish muayyan iqtisodiy munosabatlarni paydo etadi va u mulkchilik munosabatlari deb ataladi. Mulk paydo bo'lishi uchun mulkka aylanadigan narsalar naf keltira olishi zarur. Mulkchilik munosabatlari mulkni kishilarning o'ziniki yoki o'zganiki ekanligini bildiradi. Bunday munosabatlarning 3 jihati bor:

1. Mulkka egalik qilish, ya'ni mulkdorlik huquqining mulk egasida saqlanib turishi.

2. Mulkdan foydalanish va uni amalda ishlatish. Mulkdan foydalanilganda shaxsiy ehtiyojlarni qondirish yoki daromad topish yuz beradi. Mulkdor o'z mulkini ishlatganda egalik qilish va mulkdan foydalanish bir qo'lda to'planadi, Mulk keltirgan nafni uning egasi tanho o'zlashtiradi. Mulk o'zgalarga qo'lida ishlatilganda bundan olingan daromadni mulkdor mulkni amalda ishlatuvchi bilan baham ko'radi.

3. Mulkni tasarruf etish — bu mulk taqdirini mustaqil hal qilish, ya'ni mulkni sotish, merosga qoldirish, hadya etish, garovga qo'yish kabi xatti-harakatlarni erkin amalga oshirilishidir. Mulkiy munosabatlarda mulkni ijaraga berish muhim o'rin tutadi. Yer, suv havzalari, bino va inshoot kabi ko'chmas mulklar oddiy ijaraga beriladi. Qimmatbaho mashina va uskunalari (traktor, kombayn, samolyot, teplovoz, paroxod, yuk avtomashinalari va vagonlar) ijarasi lizing shaklida amalga oshiriladi. Mulk bo'lgan pul mablag'larni o'z egasi tomonidan, o'zgalarga foydalanib turish uchun berish kredit shakliga kiradi. Mulk milliy boylikni hosil etadi

Mulk huquqini himoya qilishda fuqarolik huquqining normalari muhim rol o'ynaydi. Mulk huquqini himoya qilishning asosiy usullari:

Mulkni bironing qonun siz egallashidan talab qilib olish (vindikatsion da'volar).

Mulkdan foydalanishda mulk egasiga qilingan to'sqinliklarni bartaraf etish (negator da'volar).

Mulk huquqini buzishga qaratilgan g'ayriqonuniy bitimlar (shartnomalar)ni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'volar.

Asossiz olingan mulkni qaytarish yo'li bilan qo'riqlash.

Vindikasion da'vo – bu mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishdir. Ya'ni, unga ko'ra, mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli.

Negator da'vo – bunda mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan huquqbuzarliklardan himoya qilish, ya'ni mulkdorning o'z huquqlarini har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishidir.

Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq bo'lmagan masalalarni o'rganishda mulk egalarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari 2 ko'rinishda bo'ladi:

Shartnomaviy munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishi to'g'risida shuni aytish kerakki, tuziladigan xima-xil shartnomalar aksariyat hollarda qonunga, shartnoma shartlariga rioya qilinib to'g'ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo, ba'zi hollarda shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini butunlay bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari mumkin.

Bunday paytlarda tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash hamda uning o'zi bilan mulkiy huquqlarni har tomonlama va to'la himoya qilish masalasi qo'yiladi.

Shartnomaviy munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish turlari:

– qonun xujjatlarining tartiblariga muvofiq kelmaydigan bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki ahloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

– muomilaga layoqatsiz shaxslar (yosh bolalar, ruxiy kasallar) bilan bitim tuzilishi natijasida mazkur shaxslar mulkiy zarar ko'rsalar, tuzilgan bitimlar haqiqiy emas deb topilishi bilan birga, buzilgan mulkiy huquqlar tiklanishi lozim.

– jiddiy yanglishish, aldanish, zo'rlik qilinishi ta'sirida tuzilgan bitimlar (shartnomalar) sud tomonidan haqiqiy emas deb topishilishi mumkin.

– ayrim shartnomalar (oldi-sotdi, ijara, mahsulot yetkazib berish, kontraktasiya, pudrat, mulk tashish va boshqalar) bo'yicha olingan majburiyatlar butunlay yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar mulkiy zarar ko'rishlari mumkin. Bunday hollarda ham qonun (shartnomalar)ning har qaysisini buzish oqibatlarini to'g'risida, huquqiy normalar buzilgan huquqlarni himoya qilishni nazarda tutadi.

Sud-huquq tizimida qat'iyat bilan olib berilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilishdan iboratdir. Ayni shu maqsadda keyingi yillarda sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlikni biz qonun bilan himoyalab qoyar ekanmiz, tadbirkor ish faoliyatini qo'rqmasdan kattalashtirib turli xil yo'nalishlarga faoliyat yurita boshlaydi ishonch bilan.

## REFERENCES

1. Malikov T.S, Olimjonov O.O Moliya darslik-T "Iqtisod-moliya", 2019 125 b.
2. Vahobov.A.V, Jo'rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
3. E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslani soliqqa tortish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b
4. Халилов, Б. Б., & Курбанов, Ф. Г. (2020). Важность подготовки кадров в экономике. Вопросы науки и образования, (6 (90)), 12-14.
5. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 21, 56-60.
6. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. IMRAS, 6(6), 161-165.
7. Alisher Khudoynazarovich Shadiyev. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 87–93.
8. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 23(23). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8100](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8100)
9. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 381-387.
10. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). Бухоро Вилятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 10-13.
11. Таирова, М. М., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Стратегия развития управления цепями поставок в обрабатывающей промышленности. International scientific review, (LXXI), 56-58.
12. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
13. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. Modern Science and Research, 2(10), 798–804.
14. Supievnа, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 624-629.
15. To'rayevna, S. N. . (2023). Biznes Sohasida Xodimlarni Topish Va Tanlash Bosqichlari. Miasto Przyszłości, 41, 184–190.
16. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. Modern Science and Research, 2(10), 293–300.

17. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 535–541.
18. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innovacje.*, 41, 446-449.
19. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. *Gospodarka i Innovacje.*, 41, 84-87.
20. Bahromjon, X., & Nargiza, N. . (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805–811.
21. Алимова Ш. А., Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур //Academy,(1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
22. Alimova S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
23. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." *Central Asian Problems of Modern Science and Education* 2020.1 (2020): 48-55.
24. Bustonovna, D. Z. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES IN SHAPING THE E-COMMERCE ENVIRONMENT. *Gospodarka i Innovacje.*, 41, 316-320.
25. Jumayeva, Z. (2023). THEORY OF MARKET EQUILIBRIUM, SUPPLY AND DEMAND. *Modern Science and Research*, 2(10), 740–743.
26. Ikromov, E. . (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794–797. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25929>
27. Alisher Khudoynazarovich Shadiyev. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 87–93.
28. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
29. Internet saytlari
30. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
31. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
32. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)